

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati tomonidan tizim oldiga belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan 2023- yilning 3- choragida amalga oshirilgan ishlar

Navbatdagi Kengash yig‘ilishida, Davlat statistikasini tubdan takomillashtirish yuzasidan amaldagi qonunchilik hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati farmon va qarorlarida belgilab berilgan vazifalarni so‘zsiz bajarilishini ta‘minlash hamda unga muvofiq davlat statistika ishlari ijrosi, statistika uslubiyatini takomillashtirish, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, joylardagi ijro hokimiyati organlari bilan hamkorlik qilish borasida belgilangan vazifalarning 2023 yil 9 oylik yakuni ijrosi bo‘yicha tizim organlari faoliyati natijalarining tanqidiy tahlili o‘qib eshittirildi.

Boshqarma boshlig‘i D. Mulladjanov so‘zga chiqib, 2023 yilning 9 oyi mobaynida amalga oshirilgan statistik ishlar va tahlillar bo‘yicha ma‘ruza qildi.

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, viloyatda joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (YAHM) hajmi joriy narxlarda 23 145,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi. YAHMning o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 104,7 foizni tashkil etdi.

Viloyat sanoat korxonalarida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish hamda ishlab chiqarish quvvatlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayonlarining jadallashishi natijasida 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida 14 271,7 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi ta‘minlanib, ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 2022 yilning tegishli davriga nisbatan 107,3 foizni tashkil etdi.

2023 yilning yanvar-sentyabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar) larining umumiy hajmi 18 904,5 mlrd. so‘mni yoki 2022 yilning shu davriga nisbatan 105,2 foizni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik sohaslarida ko‘rsatilgan xizmatlar 18 488,8 mlrd. so‘mni (105,2 %), ovchilik sohasida ko‘rsatilgan xizmatlar 0,2 mlrd. so‘mni (101,2 %), o‘rmon xo‘jaligida 227,8 mlrd. so‘mni (102,6 %), baliqchilik xo‘jaligida 187,7 mlrd. so‘mni (119,5 %) tashkil qildi. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar)lari hajmining o‘shishi asosan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohada ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli darajada ortishi bilan bog‘liqdir.

2023-yilning yanvar-sentyabr oylarida viloyatda iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 10 401,1 mlrd. so‘m, (dollar ekvivalentida 900,0 mln. AQSH doll.) asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 120,8 foizni tashkil qildi.

2023 yilning yanvar-sentyabr oylarida 2 845,5 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘shish sur‘ati 2022 yilning yanvar- sentyabriga nisbatan 105,0 foizni tashkil qildi.

Yuk tashish. Avtomobil transportida 29,2 mln. tonna yuk tashilgan bo‘lib, bu 2022 yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 110,3 foizni tashkil etdi. Yuk aylanmasi 1 095,5 mln.tn-km bo‘lib 131,3 foizni tashkil etdi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobil transporti yuk aylanmasi 2022 yil yanvar-sentyabriga nisbatan 102,9 foiz va 466,9 mln. tn-km ni tashkil qildi.

Iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznesning yuk tashish bo'yicha ulushi 33,8 foizni tashkil etgan.

2023 yilning yanvar-sentyabrida chakana savdo tovar aylanmasi 5 732,7 mlrd. so'mni yoki 2022 yilning shu davriga nisbatan 104,7 foizni tashkil qildi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi 420,2 mlrd. so'mni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 7,3 foizni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning chakana savdo tovar aylanmasi 1 107,2 mlrd. so'mga yetdi va 102,4 foizga o'sdi, umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 19,3 foizni tashkil qildi.

Umumiy tovar aylanmasi hajmida 4 205,3 mlrd. so'm savdo faoliyati bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar hisobiga to'g'ri keldi va o'sish sur'ati 2022 yilning shu davriga nisbatan 103,1 foizga yetdi. Jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmida ushbu sektor ulushi 73,4 foizga teng bo'ldi.

Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2023 yilning yanvar-sentyabr oylarida 1 028,9 mln. AQSH dollarini, jumladan eksport 131,5 mln. AQSH dollarini, import 897,4 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Tashqi savdo aylanmasining saldosi minus -765,9 mln. AQSH dollari, shu jumladan MDH davlatlari bilan 22,3 mln. AQSH dollarini va boshqa davlatlar bilan minus -788,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng ko'p ulushni Jizzax shahri 40,1 foiz ulush bilan 412,6 mln AQSH dollarini, eng kam ulushni esa Mirzacho'l tumani 0,1 foiz bilan 1,2 mln AQSH dollarini tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilning 1-oktyabr holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni 48 374 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari 28 331 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 58,6 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (49,2 %), savdo (17,0 %), sanoat (9,7 %), qurilish (5,1%) va (19%) boshqa sohalarga to'g'ri keldi.

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilning 1 oktyabr holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 30 166 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 20 566 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 68,2 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi, savdo (27,3 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (18,5 %) sanoat (15,6 %) va qurilish (8,3 %) sohasiga to'g'ri keladi.

Yig'ilish davomida kun tartibiga mufoviq, tizimda Davlat statistika ishlari dasturining ijrosi hamda Kengashning 9 oylik ish rejasiga kiritilgan tadbirlarning bajarilishi bo'yicha boshqarmaning mutasaddilari tomonidan hisobotlar berish jarayonida har bir masalani atroflicha muhokama qilinishini ta'kidladi va kun tartibidagi navbatdagi masala muhokamasiga o'tilishini aytib o'tdi.